



**IJTIMOY HIMOYA - MAMLAKATIMIZDA AMALGA
OSHIRILAYOTGAN IJTIMOY HIMOYA SIYOSATINING USTUVOR
YO'NALISHI SIFATIDA**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14095259>

Raximova Hayotxon Ma'rufjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Ijtimoiy ish mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya

Maqolada hozirgi kunda mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga qaratilayotgan e'tibor va qilinayotgan ishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar haqida aytib o'tilgan. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy himoyaga muhtoh bo'lgan aholiga ijtimoiy xizmatlarning aniq va manzilliligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar haqida ham aytib o'tilgan. Hozirda yangi ish boshlagan "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi, undagi ijtimoiy xodim vazifalari haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar

ijtimoiy himoya, Konstitutsiya, farmon, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi, ijtimoiy xodimlar, yordam ko'rsatish.

Kirish

Davlatning rivojlanish darajasi aholining ijtimoiy himoyasi qay darajada yuqoriligi bilan bog'liq. Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga alohida e'tibor berilmoqda. Nega ijtimoiy himoya mamlakat rivojini belgilab beradi degan savol qo'yilganida mamlakat rivojlanib, ravnaq topishi uchun aholining barcha qatlamlari to'laqonli yashash sharoitida bo'lishi va kelajakdagi maqsadlari uchun mukammal harakat qila olishi zarur. Ijtimoiy himoya degan so'zga to'xtaladigan bo'lsak, bu - keng ma'noda - mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan xuquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy choratadbirlar majmui; tor ma'-noda - davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rliqi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham ijtimoiy soha bo'yicha moddalar ishlab chiqilgan hamda ijtimoiy himoya masalalari takomillashtirilishi ta'kidlangan, bulardan birini misol qilsak, xususan Konstitutsiyaning 1-moddasida:

O'zbekiston - boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.



Davlatning “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” degan nomlari bir ma‘noni anglatadi.[1]

Muomalaga layoqatsiz va yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, boquvchisini yo‘qotgan oilalar hamda ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa aholi toifalarining huquqlari davlat himoyasida. Bu yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan. Ushbu qat‘iy me‘yorlar ijtimoiy sohani yagona yondashuv asosida isloh qilish zarurligini taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-oktabrda “Aholining ijtimoiy himoya qilish huquqlarini ta‘minlash hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko‘rsatishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori qabul qilindi.

Mazkur hujjatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentabr PQ-319-son qaroriga muvofiq eksperiment tariqasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoiya milliy agentligi “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari va ijtimoiy xodimlar ko‘rsatadigan ijtimoiy xizmat va yordamlarning yangi tizimi yo‘lga qo‘yilganligi, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ro‘yxati belgilanishi sohadagi ishlarni tizimli tashkil etishni yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi. Shuningdek sohaga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan o‘ziga xos boshqaruv tizimini joriy etishda muhim ahamiyatga ega. [2]

Asosiy qism

Hozirgi kunda mamlakatimizda ijtimoiy himoyada yangi milliy tizim yaratilmoqda. Prezidentimiz raisligida 2024-yil 20-fevral kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ijtimoiy himoya milliy tizimini izchillik va samaradorlik bilan amalga oshirish borasidagi ustuvor vazifalar belgilab olindi. Tanqidiy-tahliliy va amaliy ruhda o‘tgan ushbu yig‘ilish asnosida davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, “Jamiyatimizda ijtimoiy adolat va inson qadrini ta‘minlaymiz desak, bu yangi tizimni joylarda samarali ishlatib, muhtoj insonlarga madad va umid bag‘ishlashimiz kerak”. [3] Ushbu videoselektor yig‘ilishida o‘tgan vaqt mobaynida o‘ndan ortiq davlatning tajribasi chuqur o‘rganligi, malakali ekspertlar jalb qilinganligi, shu asosda olib borilgan tahlillarga ko‘ra, bu soha 30 yil oldingi tizimda qolib ketganligi, faqat davlat ajratgan pulni tarqatish bilan shug‘ullanganligi, bu esa ayrim odamlarni o‘zini o‘nglab olishga emas, yordam kutib yashashga o‘rgatib qo‘yganligi kabi holatlat aytib o‘tildi. Davlatimiz rahbari bu tizimni tubdan isloh qilish, ijtimoiy yordamning manzilliligi va natijadorligini ta‘minlash zarurligini ta‘kidladi.

Ushbu holatlar hisobga olingan holda davlatimiz raxbari boshchiligida aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmat ko‘lami va turlarini kengaytirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga



oshirilmoqda. Bu o'ringda 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga binoan yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada e'lon qilingan "ijtimoiy davlat" tamoyillarini inobatga olgan holda, fuqarolarning ijtimoiy himoyaga oid huquqlarini va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, aholiga ijtimoiy xizmatlarini ko'rsatish sifatini tubdan oshirish hamda mazkur sohaga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan mutlaqo yangi boshqaruv tizimini joriy etish hamda davlat tomonidan aholini manzilli himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Agentlik aholini ijtimoiy himoya qilish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Ijtimoiy himoya haqida so'zlaganimizda muhtaran Prezidentimizning quyidagi gaplarini ta'kidlashimiz o'rinlidir: "Ijtimoiy himoya faqat pul berish bilan cheklanib qolmoqda. Aslida, bu tizimning vazifasi aholini og'ir ahvoldan chiqarish va jamiyatda o'z o'rnini egallashi uchun ko'mak berishdan iborat bo'lishi kerak".[4]

Farmonda davlat tomonidan aholini mazilli ijtimoiy himoya qilishning asosiy yo'nalishlari belgiab berilgan:

Mazkur mavzuda ijtimoiy ish soha vakillari uchun muhim yangilik Ijtimoiy himoya milliy agentligining tuman (shahar)lardagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarida ijtimoiy xodimlar guruhlarini tashkil etildi va vazifalari belgilab berildi. Ijtimoiy xodimning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

-har bir xonadon ahvolini o'rganib, oilalardagi haqiqiy holatni hamda ularning ijtimoiy xizmatlar va yordamga bo'lgan ehtiyojini aniqlash;

-oilalarning iqtisodiy-ijtimoiy holati va ehtiyojlarini o'rganish natijasida ularning ijtimoiy pasportlarini shakllantirish;

-ehtiyojmand aholi bilan, shu jumladan keys-menejment usulini qo'llagan holda samarali ish tashkil qilish, ulardan ijtimoiy xizmatlar va yordam olish bo'yicha buyurtmalar qabul qilish, zaruratga qarab buyurtmalarni mas'ul vazirlik va idoralarga yuborish;

-og'ir ahvolga tushib qolgan va og'ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan oilalarni muntazam ravishda monitoring qilib borish, ular uchun ijtimoiy xizmat va yordamlarni tashkil etish.

"Inson" ijtimoiy himoya markazlarida aholiga yordam ko'rsatish jarayonida xodim ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqaroning holatini o'rganib, shu yerning o'zida uni ijtimoiy himoya guruhiga kiritadi va tegishliligi bo'yicha mas'ul tashkilotga yo'naltiradi. Endilikda talabgorlarni o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi yoki yolg'iz keksa va nogironligi bo'lgan shaxs deb e'tirof etish yoki



bekor qilish, shuningdek, yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar ro'yxatiga kiritish va undan chiqarish "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarining qaroriga asosan amalga oshiriladi. Bunda, ijtimoiy xodimlar mahallada planshetlar orqali 21 turdagi ijtimoiy yordam va xizmatlar bo'yicha arizalarni onlayn tarzda qabul qiladi. Shuningdek, idoraviy axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish maqsadida "Yafona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi ishga tushirilmoqda. Bu orqali ijtimoiy xodimlar tomonidan fuqarolarning arizalari onlayn qabul qilinadi va bunda "Mehr daftari", "Saxovat va ko'mak", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" axborot bazalari, shu jumladan, ushbu "daftar"larga kiritilgan fuqarolar hamda ularga tayinlangan to'lovlar to'g'risida ma'lumotlar integratsiyasi ta'minlanadi. Vazirlik va idoralarning 35 turdagi elektron ma'lumotlari almashinuvi yo'lga qo'yiladi. Buning natijasida yuqoridagi kabi holatlarga yo'l qo'yilmaydi. Talabgorning ijtimoiy yordam olgan yoki olmagan elektron bazada ko'rinib turadi. Shu orqali ayrim boqimandalik holatlarining ham oldi olinadi. Bu inson omilisiz, elektron aylanma hujjat shaklida yuritiladi. [5]

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki hozirda mamlakatimiz raxbari davlatimiz ravnaqi va jamiyat aholisining hayotini yaxshilash borasida har tomonlama ishlar olib bormoqda. Bu olib borilayotgan ishlarning barchasi aholi hayotini yaxshilash, yoshlarni har taraflama barkamol qilib tarbiyalash uchun qilinayotgan ishlardir. Ijtimoiy himoya va ijtimoiy xizmatlarga muhtoj har bir fuqaro foydalanishi va hech kim nazardan chetda qolmasligi uchun islohotlar olib borilmoqda. Islohotlarning manzilliligini oshirishdan ko'zlangan maqsad ham ana shulardan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023.05.01
2. LEX.UZ sayti materiallari.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 20-fevral kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqi.
4. Uzbekiston liberal demokratik partiyasining saylov oldi dasturi. 2023-yil 30-may.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.06.2023 yildagi PF-82-son